

## SHARTNOMA 3 -COH

2021-yil "22" NOBRYA

Toshkent shahri

Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Jamoat havfsizligi universiteti (keyingi o'rinlarda Universitet) boshlig'i **M.X.Rustambayev** bir tomondan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi (keyingi o'rinlarda - Markaz) direktori **A.U.Xalilov** ikkinchi tomondan tuzildi.

### I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son Qarori, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son Farmoni, 2021 yil 15 apreldagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5077-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 20 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 338-son qarorining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda tuzilmoqda.

2. **Shartnomaning asosiy maqsadi** – Universitetda o'quv jarayoni, o'quv-uslubiy, tashkiliy va ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali tashkil etishni takomillashtirish va rivojlantirish, jahon ta'lim standartlariga javob beradigan yuqori malakali (yurist va texnik) kadrlarni, tayyorlash, malaka oshirish, tajriba almashish, uslubiy yordam ko'rsatish, hamkorlik qiluvchi tomonlarning ilmiy, amaliy, ta'lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish, axborot-kutubxona fondi va boshqa resurslaridan qonunlar doirasida manfaatli foydalanish, fan va amaliyot sohalarini o'zaro integratsiyasini ta'minlash, innovatsion uslublarni tadbiq etish, qo'shma xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlar o'tkazish, maqolalar, elektron jurnallar va to'plamlarni nashr qilish hamda ilmiy ishlarni tashkil etish borasida hamkorlik qilishdan iborat.

3. Universitet va Markaz tomonidan ilmiy-uslubiy, tashkiliy va amaliy hamkorlik qilish masalalarini muvofiqlashtirish ushbu shartnomaning predmeti hisoblanadi.

## **II. TOMONLARNING ASOSIY FAOLIYAT YO'NALISHLARI**

5. Tomonlar ilmiy-texnik (o'quv-uslubiy, ilmiy-amaliy) va intellektual imkoniyatlarni birlashtirgan holda quyidagi yo'nalishlarda hamkorlik qiladilar:

Davlat ta'lim standartlari asosida Universitetda yetuk, malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida o'zaro samarali o'quv-uslubiy, ilmiy-amaliy hamkorlikni tashkil etish;

"Kriminalistika" va boshqa turdosh fanlar bo'yicha tayyorlanadigan o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalariga taqrizlar berish, o'quv adabiyotlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va o'quv-didaktik materiallar ishlab chiqish va ularni o'quv jarayoniga tadbiiq etishda hamkorlik qilish;

Markaz xodimlarining ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullanishlariga (jumladan maqsadli asosda) ko'maklashish;

Kursantlar va talabalar ishtirokida "Kriminalistika" va boshqa turdosh fanlar bo'yicha dolzarb bo'lgan mavzularga bag'ishlangan seminarlar va uchrashuvlarni tashkil etish;

Markaz va Universitetning qonunchiligini yanada takomillashtirish yuzasidan o'zaro hamkorlikda takliflar ishlab chiqish;

Sud ekspertizalarining zamonaviy imkoniyatlari, kriminalistik texnika vositalaridan foydalanish bo'yicha o'quv-amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, unda kriminalistik ekspertiza turlari, ularning imkoniyatlari, qo'llaniladigan kriminalistik-texnika vositalari, zamonaviy kriminalistik usul va uslublarni, hamda asbob-uskunalar bilan tanishtirish, zamonaviy kriminalistik texnika vositalari haqida keng qamrovli ma'lumotlar berish, tahlil etish, o'zaro tajribalar almashishni yo'lga qo'yish, ular asosida ilmiy-nazariy va amaliy maqolalar, o'quv-amaliy, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, sharhlar hamda to'plamlar tayyorlab hamkorlikda nashr etish.

## **III. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

### **6. Universitetning huquq va majburiyatlari:**

Markaz va Universitet o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

Markazda ilmiy-tadqiqot faoliyatni tashkil etish, takomillashtirish va rivojlantirishga amaliy yordam berish;

Universitet "Jinoiy huquqiy fanlar" kafedrasidagi o'quv jarayoni, o'quv-uslubiy, tashkiliy-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish, takomillashtirish va rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida Markaz tomonidan so'ralgan hujjatlar va materiallarni yetkazish;

Markaz xodimlarining ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullanishlari va kelgusida falsafa doktori (PhD), fan doktorlari (DSc) tayyorlashga (jumladan maqsadli)



ko'maklashish;

Hamkorlikda yaratilayotgan o'quv adabiyotlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va o'quv-didaktik ishlanmalarni Universitet o'quv jarayoniga tadbiq etilishini o'rganish va ularni yanada takomillashtirish maqsadida Markaz xodimlarini ishchi guruhlar va komissiyalar tarkibiga jalb etish;

Markazning malakali mutaxassis-xodimlarini Universitet o'quv jarayoniga jalb etish;

Markazning malakali mutaxassis-xodimlarini Universitetda o'tkaziladigan targ'ibot tadbirlariga (davra suhbatlari, seminar, konferensiyalar va boshq.), o'quv jarayoniga (ma'ruza, amaliy va boshqa mashg'ulotlar o'tkazishga) taklif etish;

Markazda o'tkaziladigan tadbirlarda qatnashish;

Markazning so'rovi asosida Markazni malakali mutaxassis-xodimlar bilan ta'minlashda hamkorlik qilish.

### **7. Markazning huquq va majburiyatlari:**

Universitet va Markaz o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

Universitetda o'quv jarayoni, o'quv-uslubiy, tashkiliy va ilmiy-tadqiqot faoliyatni tashkil etish, takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha maslahatlar berish;

Davlat ta'lim standartlari asosida Universitetning "Jinoiy- huquqiy fanlar" kafedresi tomonidan o'qitilayotgan fanlarning o'quv dasturlariga vakolat doirasida taqrizlar berish, o'quv adabiyotlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va o'quv-didaktik materiallar ishlab chiqish va ularni o'quv jarayoniga joriy etishda hamkorlik qilish;

Universitet "Jinoyat huquqiy fanlar" kafedresi professor-o'qituvchilarining Markazda amaliy tadqiqotlar o'tkazishlariga belgilangan tartibda sharoit yaratib berish.

Universitetda ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminarlar tashkil etish, Universitetning xalqaro aloqalarini rivojlantirish, professor-o'qituvchilar, kursantlarning xalqaro ilmiy anjumanlarda ishtirok etishlarida ko'maklashish;

Universitetning yozma so'rov xatiga asosan o'tkaziladigan ma'ruza, amaliy va "ochiq dars", "master class" mashg'ulotlariga Markazning tegishli mutaxassis-xodimlarini yuborish.

## **IV. SHARTNOMANI AMAL QILISHI VA MUDDATI**

8. Shartnoma imzolangan kundan boshlab **5 yil muddatga** amal qiladi.

9. Shartnomada ko'rsatilgan ishlarni to'liq va samarali bajarish uchun har o'quv yilida tadbirlar tuziladi va tasdiqlanadi.

10. Tomonlarning roziligi asosida shartnomaga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

11. Shartnoma taraflarning har biri uchun bir nusxadan tuzildi. Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga ega.

12. Mazkur shartnoma bo'yicha nizolar o'zaro muzokaralar orqali va qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig'i yuridik fanlar doktori, professor**



M.X.Rustambayev

2021-yil “ ”

**X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi direktori**



A.U.Xalilov

2021-yil “22” noyabr

100109, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo'rg'oni.  
Tel.: 71: 230-32-82

Toshkent sh., Farg'ona yo'li ko'chasi.  
Tel.: +998 (71) 209-11-55